



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA METODIK ISHLARNI TASHKILLASHTIRISH

**Yuldasheva Zulayho Murodjon qizi**

Andijon Davlat Pedagogika instituti Maktabgacha  
ta'lim fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistri

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarning bilim saviyasini oshirish metodikasi va mohiyati yoritilgan .

**KALIT SO'ZLAR:** Maktabgacha ta'lim tashkilotlari, metodika, pedagogika, uslubiy ish, tarbiya.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье описаны методика и сущность повышения уровня знаний воспитателей дошкольных образовательных организаций.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Дошкольные образовательные организации, методика, педагогика, методическая работа, воспитание.

**ABSTRACT:** This article describes the methodology and essence of raising the knowledge level of educators in preschool educational organizations.

**KEY WORDS:** Preschool educational organizations, methodology, pedagogy, methodical work, education.



**KIRISH.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimini yanada rivojlantirish shu bilan bir qatorda yoshlarni ta'lim - tarbiyasini O'zbek mentalitetiga bilan bir qatorda zamon bilan hamnafas bo'lishlari va zamonaviy ta'limni shakllantirish. Bugungi kunning eng dolzarb masalasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Fiziologiya, gigiena, psixologiya, pedagogika sohasida olib borilgan ilmiy- tadqiqotlar natijasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari kichkintoylar hayotini tashkil etishning turli xil printsiplarini yuzaga keltiradi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.**

Adabiyotda "uslubiy ish" atamasiga ko'plab ta'riflar berilgan.

A.I.Vasilevaning ta'kidlashicha, maktabgacha ta'lim muassasasida uslubiy ish murakkab va ijodiy jarayon bo'lib, unda tarbiyachilarning bolalar bilan ishlash uslublari va usullariga amaliy tayyorgarligi amalga oshiriladi.

K.Yu. Belaya tushunishni taklif qiladi: metod ish - bu maktabgacha ta'lim muassasasining strategik vazifalarini amalga oshirishning eng samarali sifatini ta'minlashga qaratilgan faoliyatning yaxlit tizimi.

Har bir yosh guruxda bolalarni jamoachilik ruhda tarbiyalash va har bir bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan bir xil shart-sharoitlar yaratib berish. Bolalarni yosh guruxlariga ajratish, taqsimlashda har bir guruhga faqat bir xil yoshdagi bolalarnigina tanlash va shunga qarab ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish. Bolalarning har xil, turli xil faoliyat bilan shug'ullanishlari va bir-birlari bilan samimiy muloqotga kirisha olishlari uchun zarur bo'lgan kerakli muhitni yaratish. Buning uchun shular talab etiladikiy guruh xonasi va maydonchani gigienik, pedagogik, estetik talablar darajasidagi kerakli asbob-anjomlari bilan ta'minlash hamda boyitish. Bolalarning yoshiga mos kun tartibiga rioya qilishlari va uning barqarorligini ta-minlash lozim. Bolalar shaxsini shakllantiradigan faoliyat turlarini o'yin, mehnat, ta'lim, tarbiya, tashkil etishi va bu faoliyatlar uchun kun tartibidan ma'lum bir vaqt ajratish zarur.



## NATIJA VA MUHOKAMA

Metodik ishlarni tashkilashtirishda bolalarning har xil faoliyatlarini ilmiy asoslangan hollarda, printsiplar asosida almashtirib borish maktabgacha ta'lim muassasalarining har xil yosh guruhlarida bolalar hayotini tug'ri tashkil etish uchun qo'llaniladi. Bolalar jamiyatda o'z o'rnini topishi shu bilan birga, oldilariga qo'yadigan maqsadlarini to'g'ri qo'yishiga ota-onalari shu bilan birga maktabgacha ta'lim tashkilotlari ham masuldur.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ta'lim - tarbiyasi shu bilan birga metodik jihatdan ham bola meninga uzviy jixatdan yosh xususiyatiga ham bog'liq bo'lishi lozim. Bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang-barangdir desak ham bo'ladi.

Tarbiya masalalari ta'lim-tarbiya ishining tashkiliy shakllari, usullari, bolalar faoliyatining har xil turlari masalan: mashg'ulotlarda ta'lim berish orqali, ijodiy va qoidali o'yinlar, bolalarning mustaqil faoliyatlari, ularning o'z mehnati va kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali, o'z-o'ziga xizmat kilish sayrlar o'tkazish gigienik tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish maktabgacha ta'lim muassasasidagi pedagogik jarayonlarni, har bir faoliyat turlarini to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim muassasasi katta tarbiyachisining vazifasi yosh guruhiga mos tizimni ishlab chiqish, mavjud va shu bilan birga pedagogik mahoratni oshirishning samarali usullarini topib qo'llay bilishdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uslubiy ishning maqsadi - ta'lim jarayoni ishtirokchilarining umumiy va pedagogik madaniyati, mahorati darajasini doimiy ravishda oshirish bilan birga, shuningdek takomillashtirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish zarur.



Ta'lim jarayonining ishtirokchilari: bolalar, pedagogik xodimlar, ota-onalar hisoblanadi. Ular ta'limning mohiyatini ham anglay olishi lozim. Maktabgacha ta'lim muassasasida metodik ishning mazmuni ushbu maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim jarayoni natijalarini, tarbiyachilarning pedagogik mahorati va malakasi darajasini, ma'lum bir maktabgacha ta'lim muassasasining etukligi va uyg'unligini hisobga olgan holda belgilangan maqsad va vazifalar bilan belgilanadi. pedagogik xodimlar.

Maktabgacha ta'lim muassasasida metodik ishning mazmuni ushbu maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim jarayoni natijalarini, tarbiyachilarning pedagogik mahorati va malakasi darajasini, ma'lum bir maktabgacha ta'lim muassasasining etukligi va uyg'unligini hisobga olgan holda belgilangan maqsad va vazifalar bilan belgilanadi. pedagogik xodimlarini masuliyati ham juda yuqori.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari hodimlarini va boshliqlari bilishi lozimki metodik ishlar bola ongini, saviyasini oshiradi metodik ishlarni quydagi yo'nalishlari bor:

1. Tarbiyaviy jihatdan. Yangi pedagoglarni shakllantirishni ta'minlaydi ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish sharoitida pedagogik tafakkurni oshiradi.
2. Didaktik jihatdan. Kasbiy malakani oshirishga qaratilgan maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni o'qitish samaradorligini oshirishning eng dolzarb muammolari yechimi topiladi va yechim izlanadi.
3. Psixologik jihatdan. O'qituvchi - tarbiyachilarning bilimlarini yangilashga e'tibor qaratiladi umumiy, rivojlanish va pedagogik psixologiya sohalari hisoblanadi.
4. Fiziologik jihatdan. Umuman olganda malaka oshirishni ta'minlab va yosh fiziologiyasini va gigienasini rivojlantiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki bolalar ongini rivojlantirish shu bilan bir qatorda bolani shaxsini tarbiyalashda bolani MENini rivojlantirish muhim sanaladi. Shu



bilan birga bolalar ongi va ta'lim- tarbiyasi, odob - axloqi, faxmu - farosati, ham metodik ishlarga bog'liq hisoblanadi. Metodik ishlarni to'g'ri tuzish va to'g'ri bolalarga tadbiq qilish lozim. Bolani ruhiy jihatini shu bilan birga yosh hususiyatini hisobga olish zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. OtajonovaSh.Bolalarnivatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ota-onaning o'rni. –Toshkent: Sharq, 1998.
2. Quronov M. Akmalov A. Milliy fazilatlarimiz – Vatanni qanday sevish kerak?- T., 2002
3. Sayidaxmedov N. Pedagogiktexnologiya. -Toshkent,2010.
4. Xo'jamurodov I. Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zliknianglash.-Toshkent,2010.
5. Xudoyberganova M. Muxtorova M. 3-sinfda ona tili darslari. 3-sinf uchun T.: O'qituvchi, 201521. Mahmudov. T. Mustaqillik va ma'naviyat. – Toshkent: Sharq, 2001.
6. Mavlanova R. va boshqalar. Pedagogika:
7. Kasb-hunar kollejlarning talabalari uchun darslik. - Toshkent: O'qituvchi,2002.
8. Musurmonova.O.Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. -Toshkent, 2004